


## 96. Juft va toq sonlar

Yondosh mavzu:  
mayda motorika.

2 ga bo'lish, bo'linuvchi,  
bo'luvchi, bo'linma.



1. Mayda motorika shved devoriga tirmashib chiqishda ham yordam beradi. Tayoqchalarni pastdan yuqoriga qarab sanang. Qizil rangli tayoqchaning nomeri qanday? Ko'k rangdagi tayoqchalarining-chi? Qizil va ko'k rangdagi tayoqchalarining nomerlarini qanday umumiy so'zlar bilan atash mumkin?



2. Jismoniy tarbiya darsida bolalar nomer bo'yicha sanashdi. Barcha toq nomerli bolalar bir qadam oldinga chiqishdi. Qaysi nomerli bolalar oldinda bo'lib qolishdi?  
Nomeri 8 bo'lgan bola oldinda bo'lib qolishi mumkinmi?



3. Yechib ko'ring. Qaysi misollarni yecha olmadingiz?

$$8 : 2 \quad 6 : 2 \quad 4 : 2 \quad 7 : 2 \quad 5 : 2 \quad 3 : 2$$



**Juft sonlar 2 ga bo'linadi:** 2, 4, 6, 8, 10, ...

**Toq sonlar 2 ga bo'linmaydi:** 1, 3, 5, 7, 9, ...

4. Munisa onasiga kir yoyadigan dorga kiyimlarni osishda yordam berdi. Munisa har bir buyumni ikkita qisqich bilan qistirdi. Agar Munisada 24 ta qisqich bo'lsa, u nechta buyumni dorga osa oladi?





5. Ifoda tuzing. Ularni o'zgaruvchilarning berilgan qiymatlarida hisoblang.

- Uzunligi 12 m bo'lgan arqon  $d$  ta teng qismga bo'lindi. Har bir qismning uzunligi nimaga teng? ( $d = 2, 3, 4$ )
- Olmalar 2 vazaga teng bo'lib qo'yildi. Agar vazaga  $n$  ta olma sig'sa, hammasi bo'lib nechta olma bo'lgan? ( $n = 7, 8, 9$ )
- $k$  ta shnur juftlab yotqizildi. Necha juftlik hosil bo'ldi? ( $k = 8; 10; 12$ )



6. Taqqoslang.

$$\begin{array}{rcl} 16 : d & \square & 18 : d \\ b : 2 & \square & b : 5 \end{array} \quad \begin{array}{rcl} a : 10 & \square & a : 6 \\ 80 : x & \square & 8 : x \end{array} \quad \begin{array}{rcl} 40 : c & \square & 20 : c \\ y : 6 & \square & y : 3 \end{array}$$



7. Yulduzchalarni shunday raqamlar bilan almashtiringki, natijada misollar to'g'ri bo'lsin.

$$\begin{array}{r} + * 3 7 \\ 4 * 7 \\ \hline 6 7 * \end{array} \quad \begin{array}{r} - 8 8 * \\ 5 * 3 \\ \hline * 9 * \end{array} \quad \begin{array}{r} + 5 6 * \\ 2 * * \\ \hline * 2 1 \end{array} \quad \begin{array}{r} - 6 2 * \\ * * 3 \\ \hline 2 1 7 \end{array} \quad \begin{array}{r} - 4 0 0 \\ * * 7 \\ \hline 1 7 * \end{array}$$



8. Barcha juft sonlarni ko'chirib yozing va ularni 2 ga bo'ling.

11, 19, 21, 20, 5, 4, 8, 8, 15, 16.



9. Qutida oq, qizil, qora va ko'k rangli 52 ta tugmacha bor. Oq tugmachalar 19 ta, qizillari oqlaridan 6 ta kam. Ko'k tugmachalar qora tugmachalar qancha bo'lsa, shuncha. Qutida nechta ko'k tugmacha bor?

